YASHIL

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO'MITASI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
DEVONXONA

"AGRAR IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING ROLI HAMDA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAXSUS SON / №5



BASE · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · OpenAIRE · OPEN ACCESS · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · ROAD · Crossref · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · Academic Resource Index ResearchBib

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

2025-yil 17-18 aprel

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 479 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil 1-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

CHORVACHILIKDA VETERINARIYA XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI 202
Eshanqulov Sirojiddin Xakimovich

O'ZBEKISTONDA LOGISTIK MARKAZLARNI RIVOJLANTIRISHNING HOLATI VA ISTIQBOLLARI 206
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Tursunaliyev Abdulaziz Shokirjon o'g'li, Toshniyozov Anvarbek Alisher o'g'li

QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISH: KELAJAK TEXNOLOGIYALARI 211
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Bilolbek Quvonchbek o'g'li Boytemirov

XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI 215
Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Iymonqulova Mavluda O'rozali qizi, Raxmonberdiyev Sherzod Alisher o'g'li

ЗАНЯТОСТЬ И СОКРОЩЕНИЕ БЕЗРОБОТИЦЫ В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ 219
Назарова М.Ш., Бердикулов Р.А.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SAVDOSINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI 226
Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna

"YASHIL IQTISODIYOT"NI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARIDA INTELLEKTUAL MULKNING AHAMIYATI 230
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Dilnurabonu Faruxovna Amrillayeva, Muqaddas Muxamadaliyevna Xusenova

UZUMCHILIK TARMOG'IDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA ERISHISHDA SUVDAN TEJAMKORLIK BILAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI 235
Salamov Ibroxim, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich

QISHLOQ HUDUDIDA KICHIK BIZNES SOHASINI RIVOJLANTIRISH 239
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

BOZOR IQTISODIYOTIDA MULKCHILIK MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 243
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Muqaddas Muxamadaliyevna Xusenova, Dilnurabonu Faruxovna Amrillayeva

GLOBAL BIZNESDA STRATEGIK YONDASHUVLAR 247
Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna, Umrzoqov Adxam, Mirzabayev Shoxruhjon Orzumurodovich, Saidmurodov Sardor Mirsalohovich

TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVATLASH TIZIMI TAHLILI 251
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Ibragimov Jahongir Ilhom o'g'li, IbragimovBotir Uktamboy o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO SIYOSATI 257
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Inomjon Rustam o'g'li Xo'jaqulov, Sherzod Mexriddinovich Raxmatullayev

THE SOCIO-ECONOMIC IMPORTANCE OF ACCELERATED DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN A MODERN MARKET ECONOMY 262
Khamdamova Nasiba Ablakulovna, Rasulberdiyev G'ayratjon Sharof o'g'li, Ro'zmatov Feruzbek Inoyat o'g'li

"YASHIL IQTISODIYOT" TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISHDAGI ASOSIY VAZIFALAR 265
Xudoyberdiyev.U.X., Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna

YOSHLAR ORASIDA KICHIK BIZNES SOHASINI RIVOJLANTIRISH 268
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Ollonazarova Mavlyuda Shixnazar qizi

O'TISH DAVRIDAGI IQTISODIYOTDA KICHIK KORXONALARNING LOGISTIKA TIZIMI 273
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Islomjon Jamshedovich Jamshedov

GLOBAL ISISH SABABLARI VA UNING IQTISODIY OQIBATLARI 278
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi, Boyjigitov Kamronbekmirzo Sobirjon o'g'li, Mirzabayev Shoxruxjon Orzumurodovich, Saidmurodov Sardor Mirsalohovich

SERVIS XIZMATI KO'RSATISHDA CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 282
Nurmanov Sherzod Xujayarovich, Hotamov Adhamjon Asqarjon o'g'li

SERVIS XIZMATI KO‘RSATISHDA CHO‘L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Nurmanov Sherzod Xujayarovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
“Iqtisodiyot va menejment”
kafedrasi assistenti

Hotamov Adhamjon Asqarjon o‘g‘li
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
“Iqtisodiyot” fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqola cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish muammolariga bag‘ishlangan. Yaylovlarning degradatsiyasi, hosildorlikning pasayishi, qorako‘l qo‘ylarining oziqlanishiga ta’sir etuvchi omillar va innovatsion texnologiyalar yordamida chorvachilikni rivojlantirish masalalari batafsil yoritilgan. Taklif etilgan texnologiyalar yaylov resurslaridan samarali foydalanish, mahsuldorlikni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: cho‘l-yaylov chorvachiligi, yaylov degradatsiyasi, qorako‘lchilik, oziqlantirish, innovatsion texnologiyalar, ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: The article is devoted to the problems of improving the system of production and processing of steppe-pasture livestock products. The issues of pasture degradation, reduced productivity, factors affecting the nutrition of Karakul sheep, and the development of livestock farming using innovative technologies are covered in detail. The proposed technologies are aimed at the effective use of pasture resources, increasing productivity and ensuring economic efficiency.

Key words: steppe-pasture livestock farming, pasture degradation, Karakul farming, feeding, innovative technologies, environmental sustainability, economic efficiency.

Аннотация: Статья посвящена проблемам совершенствования системы производства и переработки продукции пустынно-пастбищного животноводства. Подробно освещены деградация пастбищ, снижение продуктивности, факторы, влияющие на питание каракульских овец, вопросы развития животноводства с помощью инновационных технологий. Предлагаемые технологии направлены на эффективное использование пастбищных ресурсов, повышение продуктивности и обеспечение экономической эффективности.

Ключевые слова: пустынно-пастбищное животноводство, деградация пастбищ, скотоводство, кормление, инновационные технологии, экологическая устойчивость, экономическая эффективность.

KIRISH

Cho‘l va yarim cho‘l hududlaridagi mavjud keskin ekstremal sharoit hamda mollarni tartibsiz boqish yaylov o‘simlik qoplami degradatsiyasini yanada kuchaytiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Yaylovlar degradatsiyasining oldini oluvchi ilmiy asoslangan ishlanmalar mavjudligiga qaramasdan, boqiladigan mollar sonini yaylov sig‘imiga muvofiqlashtirishning iloji bo‘lmaganligi sababli hozirgacha ishlab chiqarishga joriy etilmasdan qolmoqda.

Chop etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda 40 % yaylovlar turli darajada “inqiroz”ga ya’ni degradatsiyaga uchragan, hosildorligi esa o‘rtacha 21 % ga pasaygan. Buning natijasida qorako‘l qo‘ylarining ozuqaga bo‘lgan talabi yaylov hisobidan kamida 85 foiz ta’minlanishi o‘rniga atigi 50-55 foizga qondirilishi, qorako‘lchilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarining 30-35 foiz oshishiga yoki respublikaning sug‘oriladigan maydonlarda yetishtiriladigan ozuqalarni sotib olish hisobiga bir bosh qo‘yga o‘rtacha 21-22 ming so‘m ortiqcha xarajat qilishga olib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili orqali cho'l-yaylov chorvachiligida mavjud ilmiy ishlar va tadqiqotlar o'rganildi. A.Tangirov, Sh.Nurmanov (2020) "Cho'l-yaylov chorvachiligi muammolari va ularning yechimi" nomli ilmiy maqolasida chorvachilik muammolari va ularning yechimlari tahlil qilingan [1]. A.Tangirov, Sh.Nurmanov (2020) "Modernizatsiya samaradorlikni oshirish asosi" nomli monografiyasida cho'l-yaylov chorvachiligi muammolarini tahlil qilingan. Chorvachilikning iqtisodiy samaradorligi muhokama qilingan [2]. I.Salamov, Sh.Nurmanov (2024) "Qishloq xo'jaligi klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish jarayonlari" nomli ilmiy maqolasida chorvachilik klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish tajribalari misol tariqasida keltirilgan. Klasterlar va ular faoliyatini yuritishdagi jarayonlarni takomillashtirishda menejment usullarini qo'llash masalalari yoritilgan [3].

Yuqoridagi ilmiy maqola va monografiyada yaylov ozuqasi tanqisligi sababli amaliyotda, har bir shartli qo'y bosh soniga qishlov mavsumi uchun o'rtacha 150-200 kg. dag'al xashak va 35-40 kg. omuxta yem zaxirasi jamg'ariladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida nazariy tahlil va kontent tahlili, empirik tadqiqot, kompleks tahlil, statistik tahlil, kvantitativ va sifatli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqariladigan mahsulotlarning hajmini ko'paytirish, ularning tannarxini pasaytirish, sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirishda bu tarmoqning ozuqa bazasini mustahkamlash o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Hattoki, ozuqa bazasi mustahkam bo'lmagan xo'jaliklarda qishlov mavsumi og'ir kelgan yillarda qo'y bosh sonining yarmi va undan ko'prog'i qirilib ketishi ehtimoldan holi emas. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra qorako'l qo'ylarning mahsuldorligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadigan omil – oziqlantirish omili bo'lib, o'rta hisobda 67,0 foizni tashkil etar ekan. Mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi tashqi omillar ichida eng yuqorisi oziqlantirish hisoblanadi. Qorako'l qo'ylarini past hosilli va sifatsiz ozuqaga ega bo'lgan yaylovlarda boqish, ularning nafaqat mahsuldorligiga, balki zoogigiyena jihatidan sog'ligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Bunday sharoitda chorva moli naqadar naslli bo'lishiga qaramasdan o'zining genetik mahsuldorlik ko'rsatkichlarini to'liq namoyon eta olmaydi. Naslchilik ishlarini olib borganda ham, albatta oziqlantirish omiliga qat'iy rioya qilish maqsadga muvofiq.

Shu sababli cho'l-yaylov chorvachiligi xususan qorako'lchilikni asosiy ozuqa bazasi yaylovlardan foydalanishda innovatsiya texnologiyalarini joriy etish yo'li bilan nafaqat ishlab chiqarishni, balki, sohaga xizmat ko'rsatish hamda mahsulotlarni qayta ishlash tizimini cho'l-yaylov hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tubdan yaxshilash maqsadida takomillashtirish zarur.

Yer kurrasi o'simlik dunyosi bir yilda 160 mlrd. tonna SO^2 gazini yutib, 120 mlrd. tonna kislorodni ishlab chiqarishi, ya'ni global isishning oldini oluvchi asosiy ekologik omil ekanligi ma'lum. Shu nuqtayi nazardan, yaylov o'simliklar nafaqat yaylov chorvachilikning ozuqa bazasi, balki bir kvadrat metr yaylov maydonidagi o'simliklar 250-520 grammgacha SO^2 gazini utilizatsiya qiluvchi muhim ekologik vosita ham hisoblanadi. Shu sababli yaylovlarning o'simlik qoplamidan ratsional foydalanish, uni muhofazalash, o'simlik turlari bilan boyitish va yaylov chorvachiligi samaradorligini oshirish hamda suv taqchilligi kuchayib borayotgan hozirgi davrda suv resurslaridan tejamli foydalanish O'zbekiston Respublikasi uchun ham o'ta o'tkir muammolaridan biri hisoblanadi.

Yaylovlardan foydalanish texnologiyalari va ularning samaradorligi

Ko'rsatkichlar	Texnologiya nomi		
	An'anaviy (500 bosh)	Innovatsion (500 bosh)	Innovatsion (2500 bosh)
Mavjud yaylov maydoni, ga	314	314	1500
Talab qilinadigan yaylov maydoni, ga Shundan: tabiiy sun'iy	1500 1500 -	314 164 150	1500 783 717
Yaylov hosildorligi, s/ga: tabiiy sun'iy	3,0 -	3,6 25,0	3,6 25,0

Yaylov yalpi hosildorligi, s: tabiiy sun'iy	942,0 -	590,0 3750,0	2818,8 17925,0
Jami yalpi hosildorlik, s	942,0	4340,0	20743,8
Bir bosh qo'yga talab qilinadigan yillik ozuqa, kg	800,0	800,0	800,0
Bir bosh qo'yga to'g'ri keladigan yaylov ozuqasi, kg	188,4	868,0	829,7
Ozuqa bilan ta'minlanish darajasi %	23,6	108,5	103,7
Ona qo'ylar, bosh	500	500	1750
Olinadigan qo'zilar, bosh	500	500	1750
Shundan: o'stirishga, bosh	275	275	962
qorako'l teriga, dona	225	225	788
Yetishtiriladigan mahsulot miqdori:			
go'sht, s	81,0	81,0	377,0
jun, s	12,2	12,2	63,0
barra go'sht, dona	225	225	788
sut, s	135,0	135,0	394
Ozuqa xarajatlarini tejash hisobiga olinadigan foyda, mln. so'm	0	112,5	540,0

Manba: Mualliflar tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Bu muammolarni suv resurslaridan foydalanmay, tabiiy yog'in-sochin hisobiga yaylovni himoyalovchi saksovul ixotazorlarini barpo qilish texnologiyasi hamda yuqori hosilli yaylov agrofitotsenozlaridan mavsumiy foydalanish sxemasini qo'llagan holda yechish mumkin.

Qorako'l qo'ylarini yaylovda boqishning amaldagi texnologiyasida suv manbai (quduq) atrofidagi yaylovlardan yil bo'yi foydalaniladi, yaylov almashinish tizimi mavjud emas, yaylovlarning qo'y sig'imi hisobga olinmagan. Masalan, 500 bosh qo'yni bir yil mobaynida yaylovda boqish uchun 400 tonna yaylov ozuqasi zarur. Yaylovlar hosildorligi o'rtacha 2,5–3,0 s/ga bo'lgan taqdirda, 500 bosh qo'y uchun 1500 gektar yaylov zarur bo'ladi. Hozirgi kunda Samarqand viloyati Nurobod tumani "O'zbekiston" xo'jaligida bir otarga (500 bosh qo'yga) atigi 314 gektar yaylov to'g'ri kelmoqda. Ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bir bosh qo'y yaylovdan 800 kg o'rniga atigi 188,4 kg ozuqa olmoqda, ya'ni yaylov ozuqasi tanqisligi 611,6 kg ni, 500 bosh qo'yga esa 3058 sentnerni tashkil qilmoqda. Xo'jaliklar yetishmagan ozuqani sug'oriladigan maydonlarda yetishtirilgan pichan va boshqa turdagi xashak hamda omuxta yemlarni sotib olish hisobiga qoplamoqda. Bundan tashqari, xo'jaliklar har yili dag'al xashak jamg'arish uchun katta miqdorda moddiy va mehnat resurslarini safarbar qilishga majbur bo'lmoqda. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga va soha samaradorligining keskin pasayishiga olib kelmoqda.

Taklif etilayotgan innovatsion texnologiya bo'yicha, otarda tabiiy yog'in-sochin hisobiga 150 gektar ko'p komponentli, yuqori hosilli (25 s/ga) yaylov agrofitotsenozi yaratilsa, ushbu agrofitotsenozlardan 374 tonna, qolgan 164 gektar tabiiy yaylovlardan 49 tonna, jami 423 tonna yaylov ozuqasini olish mumkin bo'ladi. Demak, bu holda hayvonlarni yaylov ozuqasi bilan ta'minlash darajasi 105,7% ga yetadi. Yaylov ixotazorlarini yaratish va ulardan mavsumiy foydalanishga o'tish esa tabiiy yaylovlar hosildorligini 20% ga oshirish imkonini beradi. Bunda 164 gektar tabiiy yaylovdan olinadigan ozuqa oldingi 49,2 tonna emas, balki 59 tonna bo'ladi. Ko'p komponentli agrofitotsenozlar va tabiiy yaylovlardan olinadigan jami ozuqa 374 + 59 = 433 tonnani tashkil qiladi, ya'ni yaylov ozuqasi bilan ta'minlanish darajasi 108,5% ga yetadi. Bu esa 250 gektar sug'oriladigan maydonda (250 × 150 s/ga = 375 tonna) beda pichanini yetishtirish uchun sarflanadigan (250 × 1100 m^3 × 5 = 1 375 000 m^3) suvni tejashga hamda otarda har yili ozuqaga sarflanayotgan xarajatlarni to'liq tejash imkonini beradi. Demak, har bir otardan olinadigan daromad faqat ozuqa xarajatlarini tejash hisobiga 112,5 mln so'mga ortadi.

Shu bilan birga, suv resurslaridan foydalanmay, tabiiy yog'in-sochin hisobiga yaylovlar o'simlik qoplamidagi biologik xilma-xillik ko'p komponentli yaylovdagi o'simlik turlari hisobiga (saksovul, cherkez, teresken, cho'g'on,

izen, quyrovuq, erkak o't, esparset) kamida 8–10 turga boyitiladi, yaylov ozuqasi sifati keskin ortadi. Shuningdek, hozirda cho'l-yaylov xo'jaliklarida ozuqa zaxirasini yaratish uchun sarflanayotgan moddiy-texnika resurslari va ishchi kuchini keskin kamaytirish yoki butunlay barham berish imkoniyati vujudga keladi.

Yaylovni himoyalovchi saksovul ixotazorlarini barpo qilish texnologiyasi hamda yuqori hosilli yaylov agrofitotsenozlaridan mavsumiy foydalanish texnologiyasini 1500 gektar tabiiy yaylov maydoniga joriy etishning o'zi 1200 gektar sug'oriladigan yer va 6 600 000 m^3 suvni tejash imkonini beradi. Tejalishi mumkin bo'lgan yer va suvdan oziq-ovqat ekinlarining boshqa turlarini parvarishlashda foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, faqat ozuqa xarajatlarining 540 mln so'mga tejalishi va qorako'lchilik mahsulotlari – xususan, o'stirishga qoldiriladigan qo'zilar sonini 275 boshdan 962 boshga, qorako'l terisini 225 donadan 788 donagacha, tirik vazndagi go'sht yetishtirishni 81,0 sentnerdan 377,0 sentnerga, junni 12,2 sentnerdan 63,0 sentnerga, barra go'shtini 225 donadan 788 donagacha va qo'y sutini 135,0 sentnerdan 394,0 sentnerga ko'paytirish, hamda maqbul (optimal) to'liq poda aylanmasini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida xizmat qilishi muqarrar.

Taklif etilayotgan texnologiyani qorako'lchilik xo'jaliklariga joriy etish uchun dastlab aholiga savdo va maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini hamda bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarini shakllantirish va rivojlantirish zarur, xususan cho'l ozuqabop o'simliklari urug'larini 100–120 gektar maydonda yetishtirib beruvchi fermer xo'jaliklarini cho'l-yaylov chorvachiligi hududlaridagi har bir tumanda tashkil etish maqsadga muvofiq. Cho'l ozuqabop o'simliklar urug'larini yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tuman hududida joylashgan cho'l-yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklariga o'simlik urug'larini yetkazib berish bilan birgalikda, ekish va parvarishlash texnologiyasi bo'yicha amaliy yordam berishni ham tashkil etishlari lozim.

1500 ga tabiiy yaylovda taklif etilayotgan texnologiyani joriy etilishini ta'minlash bozor iqtisodiyoti mexanizmiga binoan faoliyat yuritadigan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari va agrofirmalarni shakllanishiga olib keladi. Ushbu texnologiya asosida shakllanishi mumkin bo'lgan fermer xo'jaliklari va agrofirmalar chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan birgalikda, ularni qayta ishlab tayyor mahsulot darajasiga yetkazish va sotish bilan ham shug'ullanishadi. Bu shakldagi xo'jalik yurituvchi subyektlar yetishtirgan mahsulotlarini, xususan qorako'l, qo'y va boshqa mollarning terilari, juni, go'shti va sutini qayta ishlovchi zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan kichik sanoat korxonalarning hududda faoliyat ko'rsatayotgan ixtisoslashgan xo'jaliklar, fermer va dehqon xo'jaliklari bilan o'zaro integratsiyalashi asosida tashkil etishlari mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, xom ashyoga nisbatan uni tayyor mahsulotga aylantirib sotish xo'jalik yurituvchi subyektlarga kami bilan 2–2,5 barovardan ortiq daromad keltiradi. Taklif qilinayotgan texnologiya bo'yicha 1500 ga yaylov maydonidan olinishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni qayta ishlab, tayyor mahsulot darajasiga yetkazilsa, joriy baholarda hisoblanilganda 468,5 mln so'm o'rniga 936,9–1171,2 mln so'mgacha ko'paytirish imkonini tug'dirish bilan birgalikda mahsulotlarni qayta ishlash hisobiga 12–15 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga olib keladi.

Demak, cho'l-yaylov hududlarida sun'iy yaylovlarni barpo etish ozuqa yetishtirish uchun ajratilayotgan suv va sug'oriladigan yerlardan oziqa ekinlarining boshqa turlarini parvarishlash, chorva mollarini yil davomida yaylov ozuqasi bilan to'liq ta'minlash, ozuqa xarajatlarini keskin kamaytirish hisobiga tarmoq samaradorligini oshirish, cho'llanishning oldini olish, ekologiyani barqarorlashtirish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ta'kidlanganidek, cho'l-yaylov hududlarida xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali jadallashtirish, qorako'lchilik tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi respublikaning boshqa hududlaridan pastligini hisobga olib, uni tezlashtirish ko'p jihatdan ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining tashkil etilishi hamda faoliyat ko'rsatish darajasi bilan birgalikda cho'l aholisiga ijtimoiy, xususan pullik, savdo va maishiy xizmatlar ko'rsatilish hajmiga ham bog'liq.

Cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish, yaylov resurslarini muhofaza qilish va ulardan ratsional foydalanishni talab qiladi. Taklif etilgan innovatsion texnologiyalar asosida yaylov ozuqa bazasini mustahkamlash orqali chorvachilik mahsuldorligini oshirish, suv va yer resurslarini tejash, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin. Bu yondashuv iqtisodiy samaradorlikni oshirish va cho'l hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati

1. A.Tangirov, Sh.Nurmanov "Cho'l-yaylov chorvachiligi muammolari va ularning yechimi" AGR0 ИЛМ- 0'ZBEKISTDN QISHLOQ VA SUV XO'IALIGI JURNALI . 3-son, 2020. 48-50 betlar.
2. A.Tangirov, Sh.Nurmanov "Modernizatsiya samaradorlikni oshirish asosi" Monografuya. samarqand: "FAN BULOG'I" nashriyoti,- 2022 yil-164 bet

3. I.Salamov, Sh.Nurmanov (2024) "Qishloq xo'jaligi klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish jarayonlari" "Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini" Ilmiy -amaliy jurnal "Yem-xashak yetishtirishdagi muammolar, ularning yechimi va istiqboldagi vazifalar" mavzusidagi Xalqarp ilmiy-amaliy anjuman Maxsus son [2], 2024
4. Nurmanov, S., & Aslonov, X. (2024). Chorvachilik majmuasi infratuzilmasi va uni rivojlantirish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
5. Egamovich, T. A., & Khojayarovich, N. S. (2022). INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR PROCESSING OF KARAKUL PELTS AND THEIR ECONOMICAL EFFICIENCY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.1 Economical sciences).
6. Salamov, I., Nurmanov, S., & Hotamov, A. (2024). Chorvachilik tarmog'ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniytlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
7. Salamov, I., Nurmanov, S., Tursunov, A., & Yo'ldoshev, R. (2024). Chorvachilik tarmoqlarida otchilik infratuzilmasining hozirgi holati va istiqboldagi iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
8. Nurmanov, S. (2024). THE IMAGE OF A BIRD AS AN INDEPENDENT ELEMENT IN HISTORICAL AND ARCHITECTURAL OBJECTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(11), 35-38.
9. Nurmanov, S., Eshimova, G., & Daniyarov, X. (2024). Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi holati. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
10. Salamov, I., Nurmanov, S., & Hotamov, A. (2024). Chorvachilik tarmog'ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniytlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
11. Xamdamova, N., Tirkashev, F., Sayfullayev, A., & Erkinov, S. (2024). Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).